Bugun aksar mamlakatlarning jazo tizimida yangi jazo turlarini tatbiq etish talab qilinmoqda. Albatta, ozodlikdan mahrum qilishning muqobil variantlari jazoni ijro etish tizimining muhim qismidir. Qamoq nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarasiz usuli, shuningdek, shaxs, jamiyat uchun salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Og‘ir jinoyatlar sodir etmagan jinoyatchilarni qamoqda saqlash maqbul jinoyat siyosati hisoblanmaydi. Buni davlat uchun ham munosib tanlov deb bo‘lmaydi. Chunki "qamoq yomon odamni yanada yomonlashtiradigan qimmat usuldir"[1].




OZODLIKDAN MAHRUM QILISH bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoiy jazolar tushunchasi va turlari

Jazo tayinlash, shu jumladan muqobil jazo turlarining ayrim jihatlari Z. Zaripov, I. Ismailov, Q. Abdurasulova, A. Zokirova, M. O‘razaliyev, A. Musayev, J. Muxtorov, Sh. Pulatova, R. Kabulov, M. Rustamboyev, F. Toxirov, M. Rajabova, M. Usmonaliyev, A. Yakubov, I. Fazilov, S. Latipovlarning ilmiy-nazariy ishlarida o‘rganilgan.

MDHga a’zo mamlakatlar olimlaridan M. Gernet, A. Jijilenko, O. Nemirovskiy, A. Piontkovskiy, A. Traynin, N. Belyayev, Y. Braynin, S. Borodin, P. Galiakbarov, I. Galperin, S. Dementev va boshqalar muqobil jazo hamda jazo tayinlash masalalarini tadqiq etishgan.

[1] https://newsland.com/post/5796718-tiurma-voobshche-to-slishkom-dorogoi-put-dlia-ukhudsheniia-cheloveka.



Shu sababli, tadqiqotchi M. Nazarov ta'kidlaganidek, jinoiy jazolar tizimini tubdan isloh qilish, jazolarni differensiyalashtirish yo'li bilan jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali choralar va mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi[2].

Xorijiy olimlar M. Meyer, K. Alexander, R. Kleinbach, R. Fletcher, M. Joys va boshqalar ushbu mavzuning o'ziga xos jihatlarini yoritgan.

2020-yilda O'zbekistonda har 100 ming kishidan 68 nafari jazo ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tagan[3].

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilgacha O'zbekistonda 54 koloniya faoliyat yuritgan. Ularning 18 tasi yopiq, 25 tasi jazoni ijro etish koloniyasi va 11 tasi tergov izolyatori. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, qamoqxonalarda 22 mingdan ortiq mahkum bo'lgan. Ulardan 7000 dan ortig'i umumiy rejimdagi koloniyalarda, 14000 dan ortig'i yopiq turdagi koloniyalarda jazo o'tamoqda[4].

2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra AQShda har 100 ming kishidan 639 kishi, Rossiyada 340 kishi, Turkiyada 335 kishi, Belarusda 343 kishi va O'zbekistonda 68 kishi jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tamoqda. O'zbekistonda aholisi soni bo'yicha qamoqxonada jazo o'tash pasayishining ijobiy dinamikasi kuzatilgan. Lekin O'zbekiston Jinoyat kodeksida uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni qilgan jinoyatchini jamiyatdan ajratmagan holda jazolashga imkon berilmagan. Ushbu holatlarda ozodlikdan mahrum qilish jazosining muqobil choralarini qo'llash orqali mahkumlar sonini kamaytirishda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bundan tashqari, davlat bu odamlarni qamoqda saqlashning normal sharoitlarini ham, jamiyat-

[2] М. Назаров. Назначение наказания в уголовном праве Республики Узбекистан. Автореферат дисс. докт. фил. юрид. наук (Doctor of Philosophy) Ташкент. 2020. 25-б.
[3] https://news.rambler.ru/world/45595956-v-uzbekistane-nazvali-chislo-zaklyuchennyh/
[4] https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistondagi-tergov-hibskhonalarida-video-kuzatuv-vositalari-soni-nechta

ga integratsiyasini ham ta’minlay olmaydi. Shu sababli bu muammo yuridik mazmundan umumiy jamiyat muammosiga aylangan.

Shubhasiz, chet elda muqobil jazolarni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish orqali O‘zbekistonda muqobil jazolarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berish mumkin. Hozir milliy jinoyat huquqi fanida muqobil jazolarni qo‘llash sohasida mustaqil qiyosiy huquqiy tadqiqotlar mavjud emas.

Rivojlangan mamlakatlarning jinoyat-huquqiy siyosati mahkumni jamiyatdan ajratib qo‘ymasdan jazolashni keng qo‘llashni nazarda tutadi.

Jahonda qamoqxona indeksi (yoki ”qamoqxona aholisi” indeksi) har yili ekspert doiralarda “World Prison Brief” ochiq manbasi[5] orqali muhokama qilinadi. Ushbu ko‘rsatkichni pasaytirishga intilgan holda, ko‘p xalqaro hujjatlarda “qamoqqa muqobil jazo choralarini joriy etishdagi huquqiy to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida qonunchilikni qayta ko‘rib chiqish zarurligiga”[6] e’tibor qaratilmoqda.

BMTning 1990-yilgi Qamoqda saqlash bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo choralariga oid minimal standart qoidalari (Tokio qoidalari) muqobil jazolardan foydalanishga undovchi asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi. Qoidalarning 1.5-bandiga binoan “A’zo davlatlar o‘zlarining huquqiy tizimlarida ozodlikdan mahrum qilish jazosidan foydalanishni qisqartirish va shaxsning huquqlari, talablariga rioya qilish maqsadida jinoiy odillik siyosatini maqbullashtirish, ijtimoiy adolat va huquqbuzarning jamiyatdagi normal hayotga qaytish ehtiyojlari nuqtayi nazaridan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa choralarni ishlab chiqishadi”. Qoidalarning 2.3-bandiga ko‘ra “Huquqbuzarlikning mohiyati va og‘irligi, shaxsning shaxsiyati va kelib chiqishiga, shuningdek jamiyatni himoya qilish manfaatlariga muvofiq ravishda jazoning moslashuvchanligini ta’minlash va qamoq jazosidan asossiz foydalanishdan tiyilish maqsadida, jinoiy adliya tizimida qamoqqa hukm qilinmaslikning sudgacha va suddan keyingi keng doirasi nazarda tutilishi kerak”.

Professor M. Rustamboyev bir nechta asarida jazolarni tasniflar ekan, muqobil jazolarni alohida ajratib o‘tirmasdan, jazoning og‘irligiga qarab, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ajratib ko‘rsatadi[7].

Bizningcha, bugun muqobil jazo choralarini ilmiy jihatdan chuqur va puxta o‘rganish, milliy jinoyat huquqi doktrinasi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Qolaversa, “muqobil jazo”



[5] https://www.prisonstudies.org/
[6] Сборник документов Совета Европы в области защиты прав человека и борьбы с преступностью. С. 125
[7] М. Ҳ. Рустамбоев. Жиноят ҳуқуқи (Умумий қисм). Олий ўқув юртлари учун дарслик. Тошкент . “Ilm ziyo” – 2006. 371-372-б.

tushunchasi milliy qonunchilikda ham o‘z o‘rnini topishga ulgurgan.

Ayni damda biz M. Rustamboyev qayd etgan fikrdan farqli ravishda muqobil jazolarga ozodlikni cheklash bilan emas, balki aynan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan, Jinoyat kodeksida asosiy jazo sifatida nazarda tutilgan jazolarni tushunish zarur deb hisoblaymiz.

Tadqiqotchilar I. Dvoryanskov, V. Sergeyeva, D. Batalin muqobil jazo turlari sifatida tasniflashda ikkita mezonni ajratishni zarur deb hisoblashadi:

- mahkumni jamiyatdan ajratishdan o‘zgacha bo‘lgan ta’sir qilish mexanizmi;
- jazoning asosiy jazo maqomi, unga ko‘ra jazo jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxs uchun javobgarlik chorasini belgilashda ozodlikdan mahrum qilish bilan teng ravishda ko‘rib chiqilishi hamda boshqa jinoiy harakatlar uchun unga parallel ravishda emas, aynan ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rniga maxsus qo‘llanilishi mumkin[8].

Shunga asoslanib I. Dvoryanskov va V. Zaychenko muqobil jazo deganda, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga majburiy ta’sir ko‘rsatuvchi, jamiyatdan ajralib qolish bilan bog‘liq bo‘lmagan, ammo o‘z mohiyati va qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq uning o‘rnini bosadigan, shuningdek ijtimoiy adolatni tiklash, mahkumni axloqan tuzatish, yangi jinoyatlarni sodir etishning umumiy va maxsus profilaktikasi maqsadini ko‘zlaydigan davlatning majburlov choralarini tushunishadi.

Ozodlikdan mahrum qilishning muqobil choralari masalasi nafaqat ichki, balki chet el qonunchiligi uchun ham dolzarbdir, ammo u yerda ular qamoqqa nisbatan ko‘rib chiqiladi. Jumladan, B. Karoli ozodlikdan mahrum qilishning muqobil choralarini “...ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan, jinoyat qonuni bilan taqiqlangan harakatlarga munosabat bildirishning barcha choralari” deb ta’riflaydi[9]. Shu bilan birga, G. Stenichkin ushbu ta’rifning uncha to‘liq va yetarli emasligi va muqobil choralarning konseptual apparatini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

Amaliyotchi U. Xanayev “jinoyatlarni tasniflash... adolatli jazo tayinlashning muhim sharti hisoblanadi” deydi. Jumladan, u Jinoyat kodeksining maxsus qismidagi moddalarni tahlil qilish asosida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar belgilangan 154 ta norma (98 foiz) sanksiyasida muqobil jazo turlari keltirilganligi, Jinoyat kodeksi maxsus qismidagi uncha og‘ir bo‘lmagan 12 ta jinoyat tarkibida yoki 93,6 foiz holatda muqobil jazolar ham tayinlanishi mumkinligi belgilangani, ayni damda Jinoyat kodeksi maxsus qismidagi og‘ir jinoyatlarning atigi 13 turi uchun (11,4 foiz) ozodlikdan mahrum qilish jazolari bilan birga boshqa jazolar ham tayinlanishi mumkinligini qayd etadi.

Shu kabi qator milliy amaliyotchi va olimlar muqobil jazolarni ishlarida qayd etishgan, ammo ushbu jazolar tasnifi, tushunchasi borasida to‘xtalishmagan.

Ozodlikdan mahrum qilishning muqobil choralari “... muqobil jazolar sifatida ifodalanishi mumkin (Jinoyat kodeksining 43-moddasi):

- ushbu jinoyat uchun nazarda tutilganidan ko‘ra yengilroq jazo tayinlash (Jinoyat kodeksining 57-moddasi);
- jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish (Jinoyat kodeksining 74-moddasi);
- ozodlikdan mahrum qilish jazosini haqiqatda ijro etishning oldini olishga qaratilgan jinoyat-huquqiy choralari;
- jinoiy javobgarlik doirasida amalga oshirilgan boshqa ta’sir choralari (majburiy tarbiyaviy choralar)”, ya’ni biz ozodlikdan mahrum qilishning muqobil choralari haqida so‘z yuritib, muqobil jazolar, muqobil choralar, jinoiy javobgarlikka muqobil choralar to‘g‘risida gapirishimiz mumkin.

Muqobil jazoning mezoni mahkumga ta’sir qilishda jamiyatdan ajratish emas, balki boshqa mexanizmni qo‘llash hisoblanadi. Shunga ko‘ra, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan muqobil jazoni qo‘llash deganda Jinoyat kodeksida belgilangan, majburlov ta’siriga ega,

[8] Дворянсков И.В., Сергеева В.В., Баталин Д.Е. Применение альтернативных видов наказания в Западной Европе, США и России. М., 2003. С -9.
[9] Кароли Б. Альтернативные меры уголовного наказания // Альтернативы тюремному заключению в Республике Казахстан. С-67.

jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq bo‘lmagan, ammo mohiyatan uning o‘rnini bosuvchi, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqadigan hamda ijtimoiy adolatni tiklash, mahkumni axloqan tuzatish, yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadini ko‘zlaydigan davlat majburlov choralaridan birini qo‘llash tushunilishi kerak.

BMTning Qamoqda saqlash bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo choralariga oid minimal standart qoidalari (Tokio qoidalari) 2.4-bandiga muvofiq “ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan yangi choralarni ishlab chiqishni rag‘batlantirish va diqqat bilan kuzatib borish va ularni qo‘llash amaliyotini muntazam ravishda baholash kerak”.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq va unga muqobil jazolarning nisbati rivojlangan huquqiy tizimga ega davlatlarda juda past. Yevropa mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya) ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar soni muqobil jazo tayinlanganlarga nisbatan 5-6 baravar kam.

Aytish joizki, Londonda joylashgan Qamoqxonalarni tadqiq qilish xalqaro markazi 2019-yilda e’lon qilgan ma’lumotga ko‘ra, O‘zbekistonda har 100 ming aholiga 150 nafar jazo o‘tayotgan shaxs to‘g‘ri kelishi, tizimda 43,9 ming nafar shaxs saqlanayotganligi ko‘rsatilib, O‘zbekiston bu borada 222 davlat ichida 105-o‘rinni egallagan. Biroq Ichki ishlar vazirligining 2020-yildagi rasmiy xabarida “O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligining liberallashtirilishi natijasida so‘nggi o‘n yillikda jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar soni keskin qisqardi. Real holatga ko‘ra, bugungi kunda jazoni ijro etish tizimidagi mahkumlar soni 22,9 ming nafarni tashkil etib, har 100 ming aholiga nisbatan 67 nafar shaxs to‘g‘ri keladi. Ushbu raqamlar birinchi marotaba ochiqlanmoqda”[10] deyiladi.

O‘zbekistonda muqobil jazo choralarni qo‘llashni kengaytirish quyidagi ehtiyojlardan kelib chiqadi:

- ko‘rib chiqilayotgan chora-tadbirlar ozodlikdan mahrum etish bilan muvaffaqiyatli raqobatlashadi, chunki ijroni tashkil etishda tizimli kamchiliklar mavjudligi sababli ozodlikdan mahrum qilish jazosi past samaradorlik bilan tavsiflanadi;
- mahkumlarning huquqlari va erkinliklarini so‘zsiz hurmat qilish va ularga rioya etish ozodlikdan mahrum qilish jazosi mohiyatiga yetarlicha mos emas. Jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq jazo tayinlangan shaxslar odatdagi muhitdan chetlashtirilib, jinoiy jazo maqsadlariga erishishda yordam bermaydigan, aksincha, jinoiy faol muhitga duch kelib, jiddiy shaxsiy deformatsiya yuz beradi;
- iqtisodiy vaziyat budjetni tejashni talab qiladi. Muqobil sanksiyalarni kengaytirish, “jamiyatdan ajratmaslik”ni ko‘zlaydigan yangi jazo turlarini joriy etish budjetga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz.

Bundan tashqari, xorijiy jinoyat qonunchiligida haqqoniy ravishda qayd etilganidek, ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqatgina Jinoyat kodeksi maxsus qismida belgilangan yengilroq jazo turini qo‘llash orqali jazo maqsadiga erishish imkonsiz bo‘lganda tayinlanishi mumkin (Qirg‘iziston Jinoyat kodeksi). Xuddi shunday qoidani O‘zbekiston Jinoyat kodeksining 43-moddasiga ikkinchi qism sifatida quyidagi tahrirda kiritish lozim:

“Ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqatgina ushbu kodeksning maxsus qismida belgilangan yengilroq jazo turini qo‘llash orqali jazo maqsadiga erishish imkoniyati bo‘lmaganda tayinlanishiga yo‘l qo‘yiladi”.

Shahriyor BEKNAZOV,
Toshkent viloyati prokuraturasi bo‘lim prokurori,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

[10] https://www.gazeta.uz/uz/2020/08/17/penitentiary/